O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLAR AYLANMASI SOHASIDAGI QONUNBUZARLIKLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK

CRIMINAL LIABILITY FOR VIOLATIONS IN THE SPHERE OF CRYPTO-ASSET CIRCULATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Muallif: Primov Baxtiyor Olim o'g'li [1]
Affiliyatsiya: Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23281621

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikning shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. 2018–2024-yillardagi huquqiy bo'shliq, noqonuniy mayning, litsenziyasiz kripto-ayirboshlash va kripto-aktivlardan jinoiy maqsadlarda foydalanish kabi tahdidlar kriminallashtirishning obyektiv asosi sifatida ko'rsatib beriladi. 2024-yil 19-yanvardagi O'RQ-899-son Qonun bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan 278^8 va 278^9-moddalarning tarkibi, ma'muriy preyuditsiya instituti hamda javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asoslari yoritiladi. Kripto-aktivning Jinoyat kodeksida mulkiy huquq sifatida ta'riflanishining mulkka qarshi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga ta'siri, normalar raqobati va transchegaraviy yurisdiksiya muammolari tahlil qilinib, qonunchilik va sud amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Kripto-aktiv, mayning, yashirin mayning, kriminallashtirish, ma'muriy preyuditsiya, jinoiy javobgarlik, jinoyat predmeti, mulkiy huquq, raqamli iqtisodiyot

ABSTRACT

This paper analyzes the stages of the development of criminal liability for violations related to the circulation of crypto-assets in the Republic of Uzbekistan. It identifies the objective grounds for criminalization, citing threats such as the legal vacuum that existed between 2018 and 2024, illegal mining, unlicensed crypto-exchange activities, and the use of crypto-assets for criminal purposes. The study examines the elements of Articles 278-8 and 278-9—introduced into the Criminal Code by Law No. ORQ-899 dated January 19, 2024—as well as the concept of administrative prejudice and special grounds for exemption from liability. Furthermore, it analyzes the impact of defining crypto-assets as property rights within the Criminal Code on the legal classification of property-related crimes, addresses issues regarding the conflict of legal norms and cross-border jurisdiction, and puts forward proposals to improve legislation and judicial practice.

Keywords: Crypto-asset, mining, covert mining, criminalization, administrative prejudice, criminal liability, object of the crime, property right, digital economy

O'zbekiston jinoyat huquqi doktrinasi va huquqni qo'llash amaliyoti uzoq yillar davomida moddiy olam obyektlariga, naqd va naqd pulsiz mablag'larga qarshi qaratilgan qilmishlarni kvalifikatsiya qilishga moslashgan edi. Moddiy shaklga ega

boʻlmagan, taqsimlangan reyestrdagi raqamli yozuvlar va kriptografik algoritmlar asosida mavjud boʻlgan kripto-aktivlarning paydo boʻlishi esa amaldagi jinoyat-huquqiy normalarni qayta koʻrib chiqishni taqozo etdi. Shu sababli kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi munosabatlarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish evolyutsiyasini tadqiq etish, kriminallashtirishning obyektiv va subyektiv asoslarini ilmiy baholash hamda ushbu yoʻnalishdagi milliy qonunchilikni tizimlashtirish jinoyat huquqi fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sohaning huquqiy poydevori Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son Qarori [1] bilan qoʻyildi. Ushbu hujjat bilan kripto-aktivlar aylanmasi maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning kripto-aktivlar aylanmasi bilan bogʻliq operatsiyalari soliq solinadigan obyekt hisoblanmasligi belgilandi. Keyinchalik Prezidentning 2022-yil 27-apreldagi PF-121-son Farmoni [2] bilan Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (keyingi oʻrinlarda — Agentlik) etib qayta tashkil etildi. Hozirda Agentlik kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohada faoliyatni litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari boʻyicha vakolatli organ hisoblanadi [3].

Biroq 2018-yildan 2024-yil apreliga qadar boʻlgan davrda milliy qonunchilikda jiddiy huquqiy boʻshliq mavjud edi. Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlarni faqat belgilangan tartibda litsenziya olgan provayderlar koʻrsatishi mumkinligi belgilangan boʻlsa-da, ushbu talablarni buzganlik uchun na Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksda (keyingi oʻrinlarda — MJtK), na Jinoyat kodeksida (keyingi oʻrinlarda — JK) maxsus javobgarlik normalari nazarda tutilmagan edi. Natijada huquqni qoʻllash amaliyoti bunday qilmishlarni umumiy jinoyat tarkiblariga moslashtirishga majbur boʻldi.

Xususan, noqonuniy kripto-ayirboshlash faoliyati bilan shugʻullangan shaxslarning qilmishlarini JKning 177-moddasi (Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki oʻtkazish), 188-moddasi (noqonuniy tadbirkorlik) yoki 190-moddasi (Faoliyat bilan litsenziyasiz shugʻullanish) bilan kvalifikatsiya qilishga urinishlar boʻldi. Biroq bu jiddiy nazariy ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Kripto-aktivlar valyuta qimmatliklari jumlasiga kirmaydi, Oliy sud Plenumi esa valyuta qimmatliklari roʻyxati JK Maxsus qismining sakkizinchi boʻlimida belgilanganini va uni kengaytirib talqin qilish mumkin emasligini alohida taʼkidlagan [4]. Demak, kripto-aktivni “valyuta qimmatligi” deb baholash JKning 4-moddasida mustahkamlangan qonuniylik prinsipiga, xususan, jinoyat qonunini analogiya boʻyicha qoʻllashga yoʻl qoʻyilmasligi haqidagi qoidaga zid edi [5]. Mana shu huquqiy boʻshliq yashirin kripto-bozorning kengayishiga va uning davlat nazoratidan tashqarida qolishiga sharoit yaratdi.

Noqonuniy mayning muammosi davlat rahbariyatining ham doimiy eʼtiborida boʻldi. Jumladan, Navoiy viloyati Karmana tumanida aniqlangan noqonuniy mayning holatidan soʻng Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan energetika masalalariga bagʻishlab oʻtkazilgan yigʻilishda tuman hokimi, prokurori va bir qator masʼul rahbarlar egallab turgan lavozimlaridan ozod etilgan [6]. Bu holat mazkur sohadagi qonunbuzarliklarga nisbatan davlat siyosatining keskinlashganini koʻrsatadi.

Kripto-aktivlar bilan bogʻliq qilmishlarni JKga alohida moddalar sifatida kiritishning obyektiv sabablari quyidagilardan iborat.

Energetika tizimiga tahdid. Mayning faoliyati katta hajmdagi elektr energiyasini isteʼmol qiladi. Energiya tanqisligi sharoitida elektr tarmoqlariga

yashirincha ulangan noqonuniy mayning fermalari davlatga katta miqdorda moddiy zarar yetkazmoqda va tarmoqqa ortiqcha yuklama tushishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois mayning bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning yagona energetika tizimiga noqonuniy ulanishi aniqlanganda ularga nisbatan belgilangan tarif besh barobar oshiruvchi koeffitsiyent bilan qo‘llanilishi belgilangan [3].

Kapitalning nazoratsiz chiqib ketishi. Litsenziyasiz xorijiy platformalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar mablag‘larning davlat nazoratidan tashqarida xorijga chiqib ketishi, soliq va valyuta nazoratining chetlab o‘tilishi xavfini tug‘diradi. Bu esa milliy valyutaning barqarorligi va ichki pul-kredit siyosatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Jinoiy daromadlarni legallashtirish. Kripto-aktivlar anonimlik darajasining yuqoriligi sababli firibgarlik, tovlamachilik va boshqa jinoyatlardan olingan mablag‘larni yashirish vositasiga aylanmoqda. Masalan, Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida fuqaroning bank kartasidan 279,6 mln so‘m noqonuniy yechib olingani, gumonlanuvchi esa o‘z bank kartasi orqali qariyb 897 mln so‘m mablag‘ni kripto-birjalar vositasida kriptovalyutaga aylantirgani aniqlangan [7].

Fuqarolar huquqlarining himoyasizligi. Litsenziyasiz kripto-birjalar va firibgarlikka asoslangan kripto-loyihalar (moliyaviy piramidalar) fuqarolarning mablag‘lariga tahdid soladi, 2024-yilga qadar esa bunday faoliyatga qarshi maxsus jinoyat-huquqiy vositalar mavjud emas edi.

Noqonuniy mayningning real ko‘lamini rasmiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning 11 oyida respublikada 26 ta noqonuniy mayning fermasi aniqlangan, Bosh prokuratura xabariga ko‘ra, ular tomonidan 29 mln kVt·soat elektr energiyasi talon-toroj qilingan. Bu 145 mingta xonadonning bir oylik iste'moliga teng bo‘lib, davlatga yetkazilgan zarar 58 mlrd so‘mdan oshgan [6]. 2024-yil aprelida esa Sirdaryo viloyatida aniqlangan bitta mayning fermasining o‘zi 34,3 mlrd so‘mlik elektr energiyasini talon-toroj qilganlikda gumon qilingan [8]. Mana shu raqamlar sohaga nisbatan liberal yondashuv davri tugaganini va davlat jinoyat-huquqiy vositalarni ishga solishga majbur bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ushbu muammolarga javob sifatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 19-sentabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2023-yil 24-noyabrda ma'qullangan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun 2024-yil 19-yanvarda imzolandi [9]. Qonunning JKga oid qoidalari u kuchga kirgan kundan e'tiboran uch oy o‘tgach, 2024-yil 20-apreldan amalga kiritildi. Mazkur Qonun bilan JKning XX[1] bobi 278[8]-modda (Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish) va 278[9]-modda (Mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish) bilan, MJTK esa 155[4] va 155[5]-moddalar bilan to‘ldirildi. Shuningdek, JKning sakkizinchi bo‘limiga “kripto-aktiv” va “mayning” atamalarining ta'riflari kiritildi.

JK 278[8]-moddasining birinchi qismiga ko‘ra, kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish yoxud xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish, agar bu harakatlar shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat hisoblanadi. Demak, birinchi qism ma'muriy preyuditsiya asosida qurilgan: shaxs avval MJTKning 155[4]-moddasi bo‘yicha ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lishi talab etiladi.

Moddaning ikkinchi qismida qilmishni takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, koʻp miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etish, uchinchi qismida esa juda koʻp miqdorda, xizmat mavqeyidan foydalangan holda, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini koʻzlab sodir etish ogʻirlashtiruvchi belgilar sifatida nazarda tutilgan. Eng ogʻir sanksiya — uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish. Yangi normalar amaliyotda qoʻllanilmoqda: masalan, 2026-yil sentabrida Toshkent shahrida litsenziyasiz xalqaro kripto-birja orqali qariyb 700 ta operatsiya amalga oshirgan, ularning umumiy qiymati 9 mlrd soʻmdan oshgan fuqaroga nisbatan JK 278[8]-moddasi uchinchi qismining “a” bandi bilan jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan [10].

JK 278[9]-moddasi energetika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Uning birinchi qismida anonim kripto-aktivlar mayningi bilan shugʻullanish yoki belgilangan tartibni buzgan holda mayning faoliyatini amalga oshirish ma'muriy preyuditsiya mavjud boʻlgan taqdirda jinoyat deb topiladi. Ikkinchi qismida esa yashirin mayningni amalga oshirish uchun preyuditsiyasiz, ya'ni qilmish birinchi marta sodir etilganda ham jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu qonun chiqaruvchining yashirin mayningni ijtimoiy xavfliligi yuqori boʻlgan qilmish sifatida baholaganidan dalolat beradi. Moddaning uchinchi va toʻrtinchi qismlarida ogʻirlashtiruvchi belgilar nazarda tutilgan boʻlib, eng ogʻir sanksiya bu yerda ham uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilishdir.

Har ikkala moddaning yakuniy qismida (278[8]-moddaning toʻrtinchi, 278[9]-moddaning beshinchi qismida) javobgarlikdan ozod qilishning maxsus asosi belgilangan: tayyorgarlik koʻrilayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyat haqida oʻz ixtiyori bilan arz qilgan va uni ochishga faol yordam bergan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Ushbu ragʻbatlantiruvchi norma jinoiy guruhlarni fosh etish va latent jinoyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi moddalarning kiritilishi barcha muammolarni hal etmadi, aksincha, huquqni qoʻllash amaliyoti oldiga qator yangi masalalarni qoʻydi.

Jinoyat Oʻzbekiston hududidan turib, serverlari boshqa davlatda joylashgan platforma va xorijiy shaxs nomiga ochilgan virtual hamyon orqali sodir etilgan hollarda dalillarni toʻplash, ularni protsessual jihatdan mustahkamlash va xalqaro huquqiy yordam soʻrash murakkablashadi. Elektron dalillarni olish va mustahkamlash mexanizmi hamon takomillashtirishni talab etadi.

JKning sakkizinchi boʻlimida “kripto-aktiv” va “mayning” atamalari ta'riflangan boʻlsa-da, dispozitsiyalarda qoʻllanilgan “anonim kripto-aktiv” va “yashirin mayning” tushunchalari kodeksning oʻzida ochib berilmagan. Shuningdek, “koʻp miqdor” va “juda koʻp miqdor”ni aniqlashda kripto-aktivlar qiymatini qaysi sanadagi va qaysi platformadagi kurs boʻyicha baholash masalasi ham aniq emas. Bu blanket normalarga murojaat qilishni taqozo etadi va turlicha talqinlarga yoʻl ochadi.

Mansabdor shaxs porani kripto-aktiv koʻrinishida (masalan, Bitcoin yoki USDT tarzida) qabul qilgan hollarda qilmishni JKning 210-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda predmetni qanday baholash masalasi yuzaga keladi. Tovlamachilik (JKning 165-moddasi) va firibgarlik (JKning 168-moddasi) dispozitsiyalarida mulk bilan bir qatorda mulkiy huquq ham nazarda tutilganligi sababli, kripto-aktivning mulkiy huquq sifatida ta'riflanishi ushbu tarkiblarda uni predmet sifatida e'tirof etishga asos boʻladi. Pora olish uchun esa bu masala sud amaliyotida alohida tushuntirilishi lozim.

JK 278[8]-moddasida nazarda tutilgan litsenziyasiz xizmatlar provayderi faoliyatini amalga oshirish bilan JKning 190-moddasi (Faoliyat bilan litsenziyasiz

shug‘ullanish) va 188-moddasi o‘rtasida umumiy va maxsus normalar raqobati yuzaga keladi. Bunday hollarda maxsus norma sifatida 278[8]-modda qo‘llanilishi lozim. Biroq bu borada, shuningdek, 278[8]-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarini qo‘llashda birinchi qismdagi ma'muriy preyuditsiya talab etiladimi, degan masalada Oliy sud Plenumining tushuntirishlari zarur.

Kripto-aktivlarning huquqiy tabiati va ularning noqonuniy muomalasini kriminallashtirish masalalari milliy va xorijiy olimlar o‘rtasida jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Professor M.H. Rustambayev raqamli makondagi mulkiy jinoyatlarning xususiyatlariga to‘xtalar ekan, kripto-aktivlar an'anaviy mulk tushunchasini kengaytirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jinoyat huquqi moddiy olam bilan cheklanib qolmasligi kerak, chunki virtual mulk ustidan nazoratni qonunga xilof ravishda qo‘lga kiritish jamiyat uchun moddiy mulkni talon-toroj qilish bilan bir xil xavf tug‘diradi [11]. Professor R. Kabulov noqonuniy mayningning jinoyat-huquqiy jihatlariga e'tibor qaratib, uni faqat elektr energiyasidan noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq qilmish sifatida baholash yetarli emasligini qayd etadi, chunki mayning nafaqat energiya sarfi, balki yangi raqamli qiymat yaratishga qaratilgan tizimli noqonuniy tadbirkorlik hamdir [12]. Bizningcha, keyinchalik JK 278[9]-moddasining qabul qilinishi aynan shu yondashuvga mos keladi va qonunchilikdagi tizimlilikni ta'minlaydi.

Kripto-aktivlar ustidan jinoyat-huquqiy nazorat o‘rnatishda nazariy jihatdan ikki xil yondashuv mavjud: sohani butunlay taqiqlash (bu yashirin bozorni kengaytiradi) yoki qilmishlarni umumiy normalar bilan jazolash (bu qonuniylik prinsipiga zid talqinlarga olib keladi). Bizning fikrimizcha, litsenziyalangan legal sektorni saqlab qolgan holda faqat noqonuniy aylanmani kriminallashtirishga asoslangan O‘zbekiston modeli maqbul selektiv yondashuv hisoblanadi.

Kripto-aktivning jinoyat predmeti sifatidagi maqomi doktrinada ham bahsli bo‘lib qolmoqda. Xususan, V.V. Xilyuta kriptovalyutaning talon-toroj predmeti bo‘la olishi va mulkka qarshi jinoyatlar predmetini qayta ko‘rib chiqish masalasini ko‘taradi [13], A.V. Arxipov esa raqamli obyektlarni talon-toroj predmeti sifatida tadqiq etadi [14]. Fuqarolik huquqi doktrinasida kriptovalyutaning fuqarolik huquqlari obyektlari tizimidagi o‘rni alohida tadqiq etilgan bo‘lsa [15], axborot huquqi nuqtayi nazaridan raqamli obyektlar axborot munosabatlarining obyekti sifatida ham qaraladi [16].

Bizning fikrimizcha, 2024-yilda JKning sakkizinchi bo‘limiga kripto-aktivning qiymati va egasiga ega bo‘lgan mulkiy huquq sifatidagi ta'rifining kiritilishi [9] bu bahsda muhim burilish bo‘ldi. Endilikda dispozitsiyasida mulk bilan bir qatorda mulkiy huquq ham nazarda tutilgan tarkiblar, xususan, firibgarlik va tovlamachilik bo‘yicha kripto-aktivni jinoyat predmeti sifatida e'tirof etish uchun qonuniy asos mavjud. Oliy sud Plenumi ham firibgarlik kompyuter tizimidagi axborotni o‘zgartirish yoki unga yolg‘on axborot kiritish yo‘li bilan sodir etilishi mumkinligini tushuntirgan [17]. Biroq dispozitsiyasida mulkiy huquq alohida ko‘rsatilmagan tarkiblar, masalan, o‘g‘rilik (JKning 169-moddasi) bo‘yicha muammo saqlanib qolmoqda. Kimningdir kripto-hamyonidan kripto-aktivni yashirin ravishda o‘tkazib olgan shaxsning qilmishini o‘g‘rilik sifatida kvalifikatsiya qilish mulkiy huquqni ashyoviy mulkka tenglashtirish, ya'ni jinoyat qonunini analogiya bo‘yicha qo‘llash xavfini tug‘diradi. Chunki bunday holatda ashyoni jismonan olib qo‘yish emas, balki axborot tizimiga ruxsatsiz kirish va reyestrdagi yozuvlarni o‘zgartirish sodir bo‘ladi.

Shu munosabat bilan quyidagilarni taklif etamiz: birinchidan, JKning sakkizinchi bo‘limiga “Ushbu Kodeksning mulkka qarshi jinoyatlar uchun

javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarida mulk deganda qonunchilikda belgilangan tartibda aylanmada boʻlgan kripto-aktivlar ham tushuniladi" mazmunidagi qoʻshimcha kiritish; ikkinchidan, Oliy sud Plenumining kripto-aktivlar bilan bogʻliq jinoyat ishlari boʻyicha sud amaliyotiga oid alohida qarorini qabul qilib, unda JK 278[8]-moddasi bilan 188 va 190-moddalar nisbati, ma'muriy preyuditsiyaning ogʻirlashtiruvchi qismlarga taalluqliligi, kripto-aktivlar qiymatini aniqlash tartibi hamda kripto-aktivning pora predmeti sifatidagi maqomini tushuntirish; uchinchidan, "anonim kripto-aktiv" va "yashirin mayning" atamalarining ta'riflarini JKning sakkizinchi boʻlimida mustahkamlash. Shundagina nazariy kolliziyalar bartaraf etilib, qonuniylik prinsipi toʻla ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda kripto-aktivlarga oid jinoyat qonunchiligi obyektiv iqtisodiy va texnologik zaruratlar ta'sirida shakllandi: huquqiy boʻshliq va umumiy normalarni moslashtirish davridan maxsus jinoyat-huquqiy normalar davriga oʻtildi. 2024-yildagi islohotlar davlatning raqamli iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qat'iy siyosatini aks ettiradi. Biroq transchegaraviy kiberjinoyatchilik rivojlanib borayotgan sharoitda jinoyat-huquqiy normalarni fan yutuqlari va xorijiy tajriba asosida muntazam takomillashtirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "Oʻzbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-3832-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 07/18/3832/1451-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblash toʻgʻrisida"gi PF-121-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.04.2022-y., 06/22/121/0354-son.
3. Koʻp beriladigan savollar // Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy veb-sayti. – URL: https://napp.uz/oz/pages/faq (murojaat sanasi: 15.09.2026).
4. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 28-apreldagi "Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki oʻtkazishga doir ishlar yuzasidan sud amaliyoti toʻgʻrisida"gi 8-son qarori. – URL: https://lex.uz/acts/-1449617 (murojaat sanasi: 15.09.2026).
5. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / отв. ред. А.И. Рарог. – 2-е изд. – М.: Проспект, 2004. – С. 639.
6. Kriptovalyutaning "onasi". Sim orqali oʻgʻirlanayotgan milliardlar // Kun.uz. – 2024. – 25-fevral. – URL: https://kun.uz/news /2024/02/25/kriptovalutaning-onasi-sim-orqali-ogirlanayotgan-milliardlar (murojaat sanasi: 15.09.2026).
7. Qashqadaryoda noqonuniy kriptovalyuta ayirboshlash orqali 279 mln soʻm talon-toroj qilindi // Anhor.uz. – 2026-yil 10-yanvar. – URL: https://anhor.uz/uzl/news/qashqadaryoda-noqonuniy-kriptovalyuta/ (murojaat sanasi: 15.09.2026).
8. Sirdaryoda 34,3 mlrd soʻmlik elektrdan noqonuniy foydalangan mayning ferma aniqlandi // Gazeta.uz. – 2024-yil 18-aprel. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/18/mayning/ (murojaat sanasi: 15.09.2026).

9. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-899-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2024-y., 03/24/899/0048-son.
10. Toshkentda 9 mlrd so‘mdan ortiq noqonuniy kriptoaktivlar aylanmasi bilan shug‘ullangan shaxs aniqlandi // Spot.uz. – 2026-yil 14-sentabr. – URL: https://www.spot.uz/oz/2026/09/14/turnover-crypto-assets (murojaat sanasi: 15.09.2026).
11. Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom: Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar: darslik. – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2021. – B. 442.
12. Kabulov R. va boshq. Iqtisodiy jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari: monografiya. – Toshkent: TDYU, 2023. – B. 210-.
13. Хилюта В.В. Криптовалюта как предмет хищения (или к вопросу о переформатировании предмета преступлений против собственности) // Библиотека уголовного права и криминологии. – 2018. – № 2 (26). – С. 58–68.
14. Архипов А.В. Цифровые объекты как предмет хищения // Уголовное право. – 2020. – № 6. – С. 16-23. – DOI: 10.52390/20715870_2020_6_16.
15. Перов В.А. Криптовалюта как объект гражданского права // Гражданское право. – 2017. – № 5. – С. 7–9.
16. Рассолов И.М. Информационное право: курс лекций. — М.: МГПУ, 2020. – С. 168.
17. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 17-son qarori. — URL: https://lex.uz/docs/-6523582 (murojaat sanasi: 15.09.2026).